

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

## TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

## LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rningbosarlari:** Nodir Jo'raqo'ziev  
Ziyoda Teshaboyeva

**Mas'ul kotiblar:** Ozoda Tojiboyeva  
Sanjar Mavlyanov

### Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farkod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

### Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rghanish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzARB mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editors in Chief:** Nodir Jurakuziev  
Ziyoda Teshabaeva

**Executive secretaries:** Ozoda Tajibaeva  
Sanjar Mavlyanov

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafо Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## **MUNDARIJA**

### **Lingvistika**

<b>Botir Elov, Shahlo Hamroyeva, Oqila Abdullayeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Xudayberganov</b>	
Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg'ur, o'zbek tillari misolida).....	6

<b>Gültəkin Əliyeva</b>	
Cümlədə konversiyanın sintaktik funksiyası.....	40

<b>Rafiqjon Zaripov</b>	
Til menejmenti va tilni rejalshtirish tushunchalarining lingvosiyosiy yondashuvlari.....	57

<b>Fizuli Mustafayev</b>	
Kino dilində Azərbaycan toponimləri.....	69

<b>Shodiya Rahimova</b>	
O'zbek va ingliz tilshunosligida attributiv qo'shma so'z yoxud "bahuvrihi"larning o'rganilishidagi ba'zi muammolar.....	85

### **Adabiyotshunoslilik**

<b>Gulbahor Ashurova</b>	
Kichik nasriy asarlarda Alisher Navoiy siyosining talqin etilishi.....	97

<b>Oyjamol Boboqulova</b>	
Navoiy ijodida rind obrazi va estetik ideal masalasi.....	111

## **CONTENT**

### **Linguistics**

<b>Botir Elov, Shahlo Hamroeva, Oqila Abdullaeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Khudayberganov</b>	
The Problem of pos Tagging and Stemming for Agglutinative Languages (turkish, uyghur, uzbek languages).....	6

#### **Gultekin Aliyeva**

Syntactic function of conversion in a sentence.....	40
---	----

#### **Rafiqjon Zaripov**

Lingvopolitical approaches to the concepts of language management and language planning.....	57
---	----

#### **Fizuli Mustafayev**

Azerbaijani toponyms in the language of cinema.....	69
---	----

#### **Shodiya Rahimova**

Some problems in the study of attributive compound words or "bahuvrihi" in Uzbek and English linguistics.....	85
--	----

### **Literature**

#### **Gulbahor Ashurova**

Interpretation of the character of Alisher Navoi in small prose works.....	97
--	----

#### **Oyjamol Bobokulova**

The image of the rind and the issue of the aesthetic ideal in Navoi's work.....	111
--	-----

## O‘zbek va ingliz tilshunosligida attributiv qo‘shma so‘z yoxud “bahuvrihi”larning o‘rganilishidagi ba’zi muammolar

Shodiya Rahimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lmish aniqlovchili qo‘shma so‘zlar yoxud “bahuvrihi”-lar borasida bildirilgan fikr-mulohazalar, sharh va xulosalar tahlilga tortiladi. Bundan tashqari, mazkur tillarda (aniqlovchili) qo‘shma so‘zlar va ularning tildagi mohiyati talqiniga urg‘u berilib, ular og‘zaki nutq va izohli lug‘atlardagi misollarga asoslangan holda yoritiladi. Rus tilshunoslari N.M. Shanskiy, V.R. Grigoryev, K.A. Levkovskaya, A. S. Ahmonova, A.I. Smirnitskiy, V.I. Alatilyev, o‘zbek tilshunoslari B. Madaliyev, N. Mamatov, Sh. Rahmatullayev, A. G‘ulomov, A. Hojiyevlarning qo‘shma so‘zlar, ularning paydo bo‘lishi, komponentlari o‘rtasidagi morfologik, sintaktik, leksik munosabatlar va so‘z birikmalaridan farqlash borasidagi fikrlari tahlil qilinib, fikr va mulohazalar bildirilgan.

O‘zbek va ingliz tillaridagi qo‘shib va ajratib yozish masalalari va attributiv qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishi, “bahuvrihi” termini ostida nima yotishi va qolaversa, ularning o‘xhash va farqli tomonlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** attributiv qo‘shma so‘zlar, bahuvrihi, sintaktik-leksik usul, fonetik, orfografik va morfologik mezon.

### Kirish

Qo‘shma so‘zlar har bir tilda turli xil yasaladi va turli xil o‘rganilib kelinadi. Bu fikrni bizga yaqindan tanish bo‘lgan o‘zbek, rus, nemis va ingliz tillari tahlilida quvvatlash mumkin. O‘zbek tilida ham ingliz tilida ham qo‘shma so‘zlar, ularning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lmish aniqlovchili qo‘shma so‘zlar va shular asosida tadqiqot predmetimiz hisoblanmish “bahuvrihi”larning

<sup>1</sup>Rahimova Shodiya Shuxratovna – tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti.

E-pochta: r.shodiyay@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1529-0162

**Iqtibos uchun:** Rahimova, Sh. Sh. 2023, “O‘zbek va ingliz tilshunosligida attributiv qo‘shma so‘z yoxud “bahuvrihi”larning o‘rganilishidagi ba’zi muammolar”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2: 85–96.

o'ziga xos o'rganilishi bor. Ta'kidlash joizki, mazkur ikki (ingliz va o'zbek) tiliga xos tilshunoslar ham o'z navbatida "bahuvrihi"lar bilan astoydil shug'ullanganlar, mavzuni baholi qudrat tahlil qilganlar. Albatta, mavzu talqinida muayyan o'xshashlik va farqlar bo'lishi tabiiy. Ular tomonidan "bahuvrihi"lar borasida bildirilgan fikr-mulohazalar, sharh va xulosalar tahliliga o'tmasdan oldin, mazkur tillarda (aniqlovchili) qo'shma so'zlar va ularning tildagi mohiyati talqini borasida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq.

### **Qo'shma so'zlarning yasalish usullari**

So'zlarning ma'lum grammatik (hamda semantik) qonun-qoidalar asosida o'zaro aloqaga kirishuvi natijasida so'zlar birikadi, so'z birikmalari hosil bo'ladi. Ana shunday so'z birikmalari tillar taraqqiyoti va rivojlanishi jarayonida ma'lum davrlar o'tishi bilan fonetik, grammatik va semantik jihatdan bir butun sintaktik birlikka aylanishi yoxud qo'shma so'zlar shakllanishi mumkin. Zero, dunyoning barcha tillarida, shu ma'noda ingliz va o'zbek tilida ham sof sintaktik usul bilan so'z yasalishi kuzatilmagan. Bu fikrni o'z vaqtida rus olimasi K.A. Levkovskaya ta'kidlab, "tilda sof sintaktik usul bilan qo'shma so'z yasash (чисто синтаксическое словообразование) hodisasi mumkin emas!" degan edi [Левковская 1954, 18]. O'zbek tilshunosi B.Madaliyev milliy tilimizda qo'shma so'zlarning 3 xil usul bilan yasalishini ko'rsatadi:

1. Sintaktik-leksik usul bilan yasalgan qo'shma so'zlar;
2. Sintaktik-morfologik usul bilan yasalgan qo'shma so'zlar;
3. Morfologik usul bilan yasalgan qo'shma so'zlar [Мадалиев 1958, 6-7].

Uning fikricha sintaktik-leksik usulda so'z birikmasi hech qanday so'z yasovchi qo'shimcha olmagan holda ma'lum taraqqiyotga uchraydi, so'z birikmasining komponentlari bir ma'no markaziga birlashadi, so'z birikmasi grammatik va fonetik jihatdan bir butun holga keladi. Natijada qo'shma so'z hosil bo'ladi. Masalan, *dalamudir*, *oshpichoq*. Keltirilgan misollar ichida *chalasavod*, *kaltafahm* kabi bahuvrihilarni ham qo'shma so'zlar qatori nomlaydi. Olim bu tipdagи qo'shma so'zlarni sintaktik-leksik usul bilan yasalgan qo'shma so'zlar deb atashda ikki holatni nazarda tutadi. *Birinchidan*, bunday qo'shma so'zlar, aslida, birdan ortiq so'zning ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida aloqaga kirishuvidan hosil bo'lgan so'z birikmalari bo'lib, bu - sintaktik moment. *Ikkinchidan*, shu so'z birikmalarining ma'nosida o'zgarish yuz berib, birikma so'z (qo'shma so'z) holiga kelgan, bu - leksik

moment. Ana shu ikki momentni birlashtirib, bu xildagi qo'shma so'z yasalishini sintaktik-leksik yasalish deb atash joizligini ma'qullaydi.

O'zbek tilshunoslari o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning qo'shma so'z yoki sodda so'z ekanligini baholashlari ham turlicha. Tilshunoslар ta'kidlashadiki, agar o'zlashtirilgan so'zning har bir komponenti o'zbek tilida mustaqil negiz sifatida xizmat qilsa, bunday o'zlashmalarni (*xushxabar, kamdiydon, dilorom*) qo'shma so'z deb qarash mumkin. Agar komponentlardan biri o'zbek tilida mustaqil negiz sifatida kelmasa, bunday o'zlashmalarni (*kamnamo, dilnavoz*) qo'shma so'zlar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Bu borada yana aniqroq ta'rifni B. Madaliyev beradi: "Ikki yoki undan ortiq so'z (o'zak)larning o'zaro birikuvidan tuzilib, yaxlit bir tushunchama'noni ifodalovchi so'zlar qo'shma so'zlar sanaladi" [Мадалиев 1958, 6-7]. U ayrim affiksoidlar orqali ham qo'shma so'zlar yasalishi mumkinligini ta'kidlaydi: "Qo'shma so'zlarning bir qismi -aro, -simon, -parvar, -furush, -do'z, -xo'r kabi elementlar bilan ham hosil qilinadi" [Мадалиев 1958, 6-7]. Mazkur elementlar bilan yasalgan qo'shma so'zlar ko'chma (metonimik) ma'no olsa va ular inson shaxsini bildirsa, bahuvrihilarga aylanishi yuqoridagi asarlarda e'tibordan chetda qolgan.

Bu borada rus tilshunoslari (N.M. Shanskiy, V.R. Grigoryev, K.A. Levkovskaya, A. S. Ahmonova, A.I. Smirnitskiy, V.I. Alatilyev), qolaversa, o'zbek tilshunoslari (B. Madaliyev, N. Mamatov, Sh. Rahmatullayev, A. G'ulomov, A. Hojiyev)ning qo'shma so'zlar, ularning paydo bo'lishi, komponentlari o'rtasidagi morfologik, sintaktik, leksik munosabatlar va so'z birikmalaridan farqlash borasidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Birining fikri ikkinchisini to'ldirib, masala mohiyati izohlab berilishi bilan e'tiborga loyiq. So'z birikmalariga aniq ta'rif berilmasa-da, qo'shma so'zlarga qisqa va aniq sharh bergen [Мадалиев 1958]. Biroq qo'shma so'zlar tasnifi borasida, ularni guruhlarga bo'lib o'rganish jarayonida daxldorlik aralashib ketgan. Qo'shma so'zlarning morfologik (shaklan), sintaktik (ma'no birikuvi) va semantik (ma'no anglatuvi) jihatlari uzviy (qo'shib) berilib, ular o'rtasidagi farq yaxlitlab berilmagan. Bizning fikrimizcha qo'shma so'zlar morfologik va semantik-sintaktik jihatdan o'rganilsa yetarli. Morfologik jihatdan qo'shma so'z komponentlarining qaysi so'z turkumlariga aloqadorligi va semantik-sintaktik jihatdan ularning o'zaro ma'no bog'liqligi o'rganilsa, maqsadga muvofiq. Masalan, morfologik jihatdan belbog'- bel(*ot*) + bog'(*ot*); oqsoch- (farrosh), oq(*sifat*) + soch(*ot*), uchburchak-uch(*son*) + burchak(*ot*). Semantik-

sintaktik jihatdan – aniqlovchili qo'shma so'zlar bel-aniqlovchi (tobe), bog'-aniqlanmish (hokim); oq-aniqlovchi (tobe), soch-aniqlanmish (hokim); va kopulativ qo'shma so'zlar *soddashayton, achchiq-chuchuk* bu misollarda aniqlovchi-aniqlanmishlik, tobe hokimlik yo'q, har bir komponent o'z ma'nosini sintaktik-semantik jihatdan to'la saqlab qoladi.

Tilimizda so'z birikmalari va qo'shma so'zlarning farqlanishida ham aniq chegara yo'q. Hanuzgacha ayrim olingan bir til birliklari goho qo'shma so'z, goho so'z birikmasi sifatida yoziladi va izohlaniladi. Masalan, "**og'ir oyoq**" til birligi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*og'ir oyoq*" deb ajratib yozilib, so'z birikmasi sifatida beriladi va shu sahifaning o'zida "*og'iroyoq*" homilador ma'nosida qo'shma so'z deb izohlanadi va bu til birligining ikkinchi qo'shma so'z varianti shu sahifaning o'zida to'g'riroq va ma'qulroq deb sharhlanadi. Ikkala holatda ham mazkur til birliklarining nima sababdan qo'shib yozilishi yoki nima sababdan ajratib yozilishi va ularning birga yoki ajratib yozilganda ma'no jihatdan o'zgarishi, farqiga izoh berilmaydi.

Bu va bunga o'xshash masalalar ilmiy jamoatchilik tomonidan kengroq o'rganilishi va mazkur muammolarga oydinlik kiritilishi zarur. O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning o'zaro ma'no-mazmuniga qarab muayyan turlarga bo'lib o'rganish imkoniyatiga kelsak, o'zbek tilida ularni G'arbiy Yevropa tillaridagi qo'shma so'zlarning bo'linish xususiyatlariga yaqinligini sezish qiyin emas. Masalan, "temir qoziq" yoki "yog'och qoziq" qo'shma so'zları ikki komponentdan iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelayotganligi va shu nuqtayi nazardan ularni "attributiv qo'shma so'zlar" turiga xoslash har qanday e'tirozdan holi narsa. Zero, mazkur qo'shma so'zlardagi birinchi aniqlovchi komponent ikkinchi aniqlanmish (asosiy so'z) "qoziq"ning temirdan yoki yog'ochdan ekanligini aniq ko'rsatib turibdi. Shu ma'noda, "temir-beton" qo'shma so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, u kopulativ qo'shma so'z turiga mansubligi va ikkala komponent ham o'z ma'nosiga ega ekanligi, ya'ni bir-birini aniqlab kelmayotganligini anglash mumkin. Bu qo'shma so'z komponentlariga *qanday temir*, *qanday beton* yoki *qanaqa temir*, *qanaqa beton* deb savol qo'yib bo'lmaydi, chunki ular yaxlit bir tushunchani, ya'ni muayyan bir narsani anglatib turibdi, yoki temirdan yasalgan beton haqida ma'lumot beradi.

Ingliz tilida yuqorida ta'kidlaganimizdek, qo'shma so'zlar semantik-sintaktik jihatdan 4 ta guruhga bo'lib o'rganiladi. Quyida ingliz tili qo'shma so'zlarini ichki xususiyatlari nuqtayi

nazaridan tahlil qilamiz.

a) **Fonetik mezon.**

Inglizcha qo'shma so'zlar o'zbek tili qo'shma so'zlaridan so'z urg'ulari bo'yicha farqlanadilar. Eng katta farq bosh urg'uning ingliz tilida qo'shma so'zning birinchi komponentiga, o'zbek tilida esa bosh urg'uning qo'shma so'zni ikkinchi komponenti oxirgi bo'g'iniga tushishidir. Odatda, qo'shma so'zlar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham ikki urg'u - bosh va yordamchi urg'u oladilar: *blackboard-black* (*bosh urg'u*), *board* (*yordamchi urg'u*), o'zbek tilida teskarisi: *qoradoska-qora* (*yordamchi urg'u*), *doska* (*bosh urg'u*), *ochko'z-och* (*yordamchi urg'u*), *ko'z* (*bosh urg'u*), ingliz tilida teskarisi: *dumbhead - dumb* (*bosh urg'u*), *head* (*yordamchi urg'u*). Biroq ingliz olimi G. Marchand ingliz tilida qo'shma so'z yagona bosh urg'u (*home-made, moth-eaten, spell-bound, frostbitten, homespun, heartfelt, heartbroken*)ga yoki ayrim hollarda ikki bosh urg'u (*home-bred, custom-built, government-owned, factory-packed*) olishi mumkin deb, quyidagi misollarni keltiradi:

b) **Orfografik mezon.**

Ingliz tilida qo'shma so'zlar imlosi (orfografiyasi) o'zbek tilidan ham chalkashroq. O'zbek tilida qo'shma so'zlar ikki xil: ba]zan ajratib, ba'zan qo'shilib yozilsa, ingliz tilida ular uch xil yozilish xususiyatiga ega.

1. Ajratib yoziladi. Masalan, *toy store, diving board, flower pot* kabi.
2. Chiziqcha bilan yoziladi: *air-brake, she-pony*.
3. Qo'shib yoziladi: *mushroom, pickpocket, egghead, loudmouth* va boshqalar.

Ingliz tilida otlardan yasalgan qo'shma so'zlar bobida ham shu narsani aytish mumkin:

1. Qo'shib yozilgan qo'shma otlar. Ular ikkita qisqa bo'g'inli otdan tashkil topib, tilda uzoq vaqtidan beri qo'llanishda bo'lган qo'shma otlar hisoblanadi: *housewife, lawsuit, wallpaper, basketball* kabilar.

2. Chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma otlar. Bunda ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan qo'shma otlar chiziqcha orqali ajratib yoziladi. Ular o'z ichiga affikslarni, artikl, predlog, va bog'lovchilarni ham olishi mumkin. Masalan, *house-builder*, *single-mind(ed) (ness)*, *rent-a-cop*, *mother-of-pearl* va b. [Marchand 1969, 186-189].

1. Ajratib yoziladigan qo'shma otlar. Ular odatdagidan uzunroq so'zlar hisoblanadi, jumladan, *distance learning, lawn*

*tennis, player piano* kabi.

Ingliz tilida qo'shma otlarning qo'shib yozilishi xususiyatlari ma'lum normalarga ega. Masalan, *to break through* (bostirib kirish) fe'li otashganda, qo'shib yoziladi: *a breakthrough*. Agar qo'shma so'zlar gapda predikativ (kesimlashgan) yoki atributiv (sifatlashgan) vazifasiga kelsa, ular qo'shib yo bo'lmasa chiziqcha bilan yoziladi. Ingliz tilshunoslari orasida ham o'zbek olimlari kabi qo'shma so'zlar qo'shib yozilishi kerak degan fikrlar uchraydi. Masalan, "Compound adjectives, like compound nouns, may be solid or hyphenated or separate words that are understood as one. The passage of compound adjectives from separate-word to solid-word form occurs slowly but surely as the given word unit establishes itself more firmly. Farsighted was once far-sighted. In time boy crazy very likely will be boycrazy" [Foulke 1964, 62]. E. Patridj "Usage and Abusage" kitobining "Hypenation" bobida bu haqida shunday deydi: "In the life of compound words there are three stages: 1) two separate words (*cat bird*); 2) hyphenated compound (*cat- bird*); 3) a single word (*catbird*)".

a) **Morfologik mezon.** Bu mezon ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning o'zaro, hech qanday qo'shimchalarsiz bog'lanishi bilan belgilanadi. Shu jihat bilan o'zbek tiliga juda o'xshaydi. Qo'shma so'zlarning tashqi alomatlari ham nemis tilida uchta:

- a) komponentlarning mosligi;
- b) komponentlarning ketma-ketligi;
- c) komponentlar orasidagi sintaktik munosabatlar bilan qayd qilinadi.

So'zlarning mosligi yoki ketma-ketligi ingliz tilining maxsus normalariga asoslanadilar.

Ayrim turdag'i qo'shma so'zlar komponentlari o'rnnini almashtirishlari mumkin. Bu jihat faqat ikkinchi komponenti sifat va ravish bo'lgan so'z turkumlariga oid. Masalan, *oil-rich, man-made*. Ayrim qo'shma so'zlar tarkibida yordamchi elementlarning yo'qligi bilan so'z birikmasidan ajralib turadi: *good-for-nothing, pie-in-the-sky*.

Ingliz tilida qo'shma so'zlardan anglashilayotgan narsa va hodisa so'z ma'nosi bilan juz'iy bog'liq bo'lsa-da, aynan shu so'zlar anglatgan ma'nolarga uзви aloqasi bo'lmaydi. Ingliz tilidagi "**egghead**" qo'shma so'zini olsak, u "tuxum shaklidagi bosh"ni emas, balki umuman boshqa ma'no, ya'ni "**judayam zehni o'tkir shaxs**"ni ifodalab keladi. Yoki ikkinchi bir qo'shma so'z (bahuvrihi) "**longlegs**" so'zini semantik tahlil qiladigan bo'lsak, u 'uzun oyoqli odamni emas,

balki "kriket o'yinida to'p oshiruvchining orqa tomonida turadigan o'yinchi" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida bunday misollarni ko'p uchratishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida *xumkalla* so'ziga izoh beramiz. Bu misol ostida kallasi xumga o'xshagan odamni emas aksincha, "*miyasi yo'q, kallavaram, qovoqbosh* ya'ni *esi pastroq odam*"ni tushunamiz. Yoki bo'lmasa, *qovoqbosh* so'zi negadir izohli lug'at tarkibida uchramadi, og'zaki nutqda esa ko'p qo'llaniladi va bu so'z orqali "*miyasi ishlaraydigan kishi*" tushuniladi.

O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi kompozitsiya usulida qo'shma otlar yasaladi: *toshko'mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, sadarayhon, ko'kqarg'a, qoraqurt, mingoyoqlar* ham hosil bo'ladi. Ingliz tili ham bu borada yaqin, biroq ularni yana murakkablashtirib borish mumkin. Masalan, *science fiction* so'ziga writer so'zini qo'shsak, murakkab qo'shma so'z hosil bo'ladi.

### ***Bahuvrihi tushunchasining izohi***

"Bahuvrihi" atamasi va uning tilda qo'llanilish mohiyati sharhlanadigan bo'lsa, bu termin kelib chiqish nuqtayi nazaridan sanskrit tili mahsuli hisoblanadi. Ma'nosи esa eski hind tilida "ko'p guruch" yoki "guruch boyi" demakdir. Bahuvrihilar morfologik jihatdan qo'shma so'zlardir.

Hindlar qo'shma so'zlarni grammatik jihatdan 4 asosiy guruh (*tatpurusa, bahuvrihi, dvandva, avyayibhava*)ga bo'lishadi [Srisa 1891]. Tasnidan ko'rinish turibdiki, bahuvrihi qo'shma so'zlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Yevropa tilshunosligi (ingliz va nemis)da bahuvrihilar aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlarning bir turi bo'lib, uning ostida shaxs nomlanishi bilan bog'liq holda yasalgan kompozita (qo'shma so'z)lar tushuniladi.

Ma'lumki, aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar ikki komponentdan (tobe, hokim) iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab keladi. Mazkur tartib-qoida mutlaq emas, qo'shma so'zning komponentlari (aniqlovchi va aniqlanmishlari) qo'llanilish ma'no-mohiyatiga ko'ra o'rinalarini almashtirishlari (nozikbel-belinozik) mumkin. Bahuvrihining boshqa attributiv qo'shma so'zlardan farqi shuki, nomlanish odamlarga qaratiladi va u orqali ifodalanilayotgan shaxs (kimsa) ma'nosи ko'chma - metaforik-metonimik xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni bu qo'shma so'zlar ostida asosan tirik shaxs (odam)ning o'ziga xos tomoni, belgisi, uning boshqalardan ajralib turuvchi alohidilik xususiyatlari qayd qilinadi. Ma'no ko'chishi aksariyat hollarda snekdoxalar (qism orqali butunnni anglatish)

orqali ifodalaniladi. Nomlanish konkret, nom orqali berilayotgan ma’no esa ko‘chma bo‘ladi: *olako’z* – odamning ko‘zi olaligi aniq ko‘rinib turgan narsa, ya’ni ko‘zning oq qismi ko‘p, soqqasi bir muncha ko‘tarilgan yirik, katta ko‘z. Ko‘zlar orqali muayyan bir shaxs (a’zo orqali butun) tushunilishi ma’no ko‘chishiga olib kelgan. *Qirg’iyburun* (burni qirg’ynikiga o‘xhash shaxs, burun orqali nomlanayapti), *shal pangquloq* (qulog’ining me’yordan kattaligi uchun *qulog* so‘zi bilan butun boshli bir shaxs nomlanayapti), *chalishoyoq* (chalish oyoqlari orqali uning egasi nomlanilayapti) va boshqalar.

Yuqoridagi misollarning barchasida odam tanasining bir qismi orqali uning o‘ziga diqqat qaratilgan, ya’ni qism orqali bir butun ifodalangan (snekdoxa). Ma’no ko‘chishi (metonimiya) asosida qo‘shma so‘z komponentlarining xos leksik ma’nolari e’tibordan chetda qoladi. Masalan, “xumkalla” bahuvrihisi ostida ahmoq odam’ tushuniladi, “xum” va “kalla”, xumning ichi bo‘shligi, kallaning tana a’zo ekanligi tasviran xayolga kelsa-da, ularning lug‘aviy ma’nolari (xum-idish, kalla-tana a’zosi) eslanilib o’tirilmaydi. Shu ma’noda, muloqotda bahuvrihilar muayyan shaxsning xarakterli xususiyatlarini (*toshbag’ir*, *ochko’z*, *shirinsuxan*), tashqi ko‘rinishi (*olako’z*, *kaltasoch*), ichki hislarini (*alamzada*, *jabrdiyda*), kiyimlari (*kaltayubka*, *uzunko’ylak*), tana a’zolari (*soch*, *ko‘z*, *qulog*, *oyoq*, *qo’l* va boshqalar, *jigargo’sha*, *yolg’izqo’l*), qiliqlari (*ishbuzar*, *ikkuyuzlamachi*), dunyoqarashi, fe'l-atvori, kayfiyati, tevarak-atrofdagilarga munosabati (hayotda, oilada, o‘qishda, ishda, ko‘chada, jamoat joylarida shaxsning o‘zini tutishi, xarakteri) va umuman insonni xarakterli xususiyatlarini tasvirlashda keng qo’llaniladi. Shuningdek, bahuvrihi boshqa qo‘shma so‘zlardan u orqali anglashilayotgan narsa, hodisa va shaxs bahuvrihi yasagan so‘z komponentlari ma’nosи bilan juz’iy (qisman) bog‘liq bo‘lsa-da, aynan shu so‘zlar anglatgan ma’nolarga uzviy aloqasi yo‘qligi bilan farq qiladi. Binobarin, “ochko’z” bahuvrihi so‘zini ochlik yoki ko‘z bilan bevosita aloqasi yo‘q, aloqa bilvositadir. Binobarin, ochlik ostida kishi tanasi (qorni)ning oziq-ovqat mahsulotlariga kuchli ehtiyoji tushuniladi. Ochko’z odamning qorni to‘q bo‘lishi mumkin. Bu so‘z orqali aksariyat hollarda biz yeb to‘ymaydigan, nafsini tiyolmaydigan, nafsi buzuq yoki biror narsaga o‘ch va ortiqcha hirs qo‘ygan odamni tushunamiz.

Analog misol sifatida “kaltadum” til birligini olamiz. Bu bahuvrihi anglatayotgan ma’nolar ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu qo‘shma so‘z o‘zining to‘g’ri ma’nosida dumi kalta

jonivorni (*kaltadum eshak, kaltadum it*) bildirsa, ko'chma ma'noda "Yevropacha kiyangan, kalta kiyim kiygan ayol"ni anglatadi. Masalan, *U, shahardan kelgan kaltadum, domlani boshini aylantirib, unga tegib oldi* (Sh. Rizo, Qor yog'di izlar bosildi).

Yuqoridagi misollarni biz tavsiya qilgan qoidalar asosida izohlasak, mazkur til birikmasi ostida dumi kalta eshak yoki it tushuniladigan bo'lsa, u qo'shilib emas, ajratilib (kalta dum it, kalta dum eshak) yoxud so'z birikmasi sifatida yozilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, u qo'shilib yozilsa, ko'chma ma'no kashf etib, uchinchi narsa-hodisani (itni emas ayolni) nomlaydi. Bizning nazdimizda otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanligini yoki o'sha ma'noli narsa-hodisaning mavjudligini, ortiqligini, mujassamligini bildiruvchi va otlardan sifat yasovchi "-li" qo'shimchasini soddalashtirish (kalta *dumli* eshak, kalta *dumli* it) natijasida *kaltadum* qo'shma so'zi yasalgan. Mazkur suffiks bildiruvchi aloqadorlik, mansublik ma'nosini -lik qo'shimchasi (*dumli*, *dumlik*) ham beradi. Tilning soddalik tomon rivojlanishi, soddalikni xush ko'rishi yuqoridagi suffikslarning tushib qolishi va so'z birikmasining qo'shilib yozilishiga olib kelgan, birikma va qo'shma so'zlarda ma'nolarning farqli bo'lishini ko'rsata olmagan. Bu til birligi, jumladan, *kalta dum it, kalta dumli it, kalta dumlik it* kabi so'zlar tilimizda faol bo'lib, ular itning dumi kaltaligi, itning kalta dumga ega ekanligini anglatadi. "Kaltadum" bahuvrihisining *kaltadumli, kaltadumlik* shakllari hali tilimizda mavjud emas. Ikkinci komponent -dum esa tana a'zosini emas, balki ayollarning kiygan ko'ylagi kalta ekanligini, soni keragidan ko'p ochiq, beo'xshov ekanligini anglatadi.

Qo'shimcha ravishda boshqa misollarni ham keltirishimiz mumkin, jumladan, *bo'tako'z* so'zi uning asli ma'nosи "murakkabgullilar oilasiga mansub, binafsharang, bir yillik begona o't-bo'tagulni bildiradi. Bahuvruhi sifatida ko'chma ma'noda tuya bolasining ko'ziga o'xhash chiroyli, shahlo ko'zni va shunday ko'zli shaxs (ayol)ni anglatadi: *O'lan aytib o'tirgan bo'tako'zim, Bari qizdan yaxshisan yolg'iz o'zing.* "Oq olma, qizil olma." Bu yerda qizning ko'zi tuya bolasining ko'ziga o'xhatilmoqda va shu asosda ma'no ko'chib bahuvrihi yasalgan.

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilida attributiv qo'shma so'zlar o'zbek tiliga qaraganda kengroq o'rganilgan, aniq differensatsiya qilingan va guruhlarga bo'lingan. O'zbek tilida esa

bu borada hali qilinadigan ishlar ko'p. Qo'shma so'zlar va ularning qo'shilib, ajratib yozilishi, so'z birikmalaridan farqi chegaralanilgan emas. Qo'shma so'zlar va so'z birikmalarining funksional vazifalari belgilanmagan, ularning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatilmagan. Binobarin, bu ikki so'z shakli milliy tilimiz uchun an'anaviy hodisa bo'lib, hozirgacha birining o'rniغا ikkinchisi (*so'zboshi - so'z boshi, og'iroyoq - og'ir oyoq, cho'rtkesar - cho'rt kesar*) qo'llanilib kelinadi. Mazkur masalalarni o'rganish o'zbek tilshunoslarining oldida turgan navbatdagi vazifalardir.

### **Adabiyotlar**

- Alliueper Навоий асарлари тилининг изоҳли тузати.* 1983. Тошкент.
- Foulke. 1964. *English for everyone*, New York.
- Madaliyev, B. 1958, *Hozirgi zamон о'zbek tilida qo'shma so'zlar*. Qo'qon Davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar to'plami, 6-7. Farg'onा.
- Cambridge Advanced Learner's Dictionary*. 2008. Cambridge University Press - Produced for Cambridge University Press by Arnada.
- Левковская К.А. 1954, *Словообразования*, Изд-во Московского университета.
- Marchand, Hans, 1969. *The Categories and Types of Present-Day English Word Formation 2nd edition*, 186-189. Munich: Beck.
